SAMARQAND VILOYATI JOMBOY TUMANI HOKIMINING QARORI

Jomboy t, mustaqillik maydoni, 1-uy.

2021 - yil 14 - oktabr 117-7-94-Q/21 Jomboy tumani hokimligi

Jomboy tumanida ijtimoiy muhofazaga muxtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Aholini ish bilan ta’minlash to‘g‘risida”gi Qonunining 17-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 965-sonli qarori ijrosini ta’minlash hamda tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markazining 2021-yil 4-oktyabrdagi 20/04-01/15-604-sonli xatini ko‘rib chiqib, tuman hududida joylashgan korxonalarda ish o‘rinlarining eng kam miqdorini belgilash yuzasidan berilgan takliflarni inobatga olib,

QAROR QILAMAN :

1. Tuman hududida joylashgan, ishlayotgan xodimlarning o‘rtacha soni 20 nafardan ortiq bo‘lgan korxona, tashkilot, muassasalarda 2022-yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish joylari eng kam miqdori, shu jumladan:

o‘n to‘rt yoshgacha bolalari bo‘lgan va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun 10.9 foiz (48 kishi);

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari

bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun 41.5 foiz (183 kishi);

safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun 36.5 foiz (161 kishi);

nogironlar uchun 2.7 foiz (12 kishi);

pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun 3.4 foiz (15 kishi);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun 3.6 foiz (16 kishi);

odam savdosi qurbonlari bo‘lgan shaxslar uchun 0.7 foiz (3 kishi);

atrofdagilar uchun xavf tug‘dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar uchun 0.7 foiz (3 kishi).

2. Korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun ish joylarining ko‘rsatib o‘tilgan miqdorini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi “Ijtimoiy muhofaza muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomga muvofiq belgilangan muddatlarda va tartibda yaratilishini (ajratilishini yoki band etib qo‘yilishini) hamda ish joylari sanitariya gigiyena normalariga va xodim o‘z majburiyatlarini bemalol bajarishini ta’minlaydigan mehnat sharoitlariga muvofiq bo‘lishini ta’minlasinlar.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi “Ijtimoiy muhofaza muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun band qilib qo‘yiladigan ish o‘rinlarini tuman hokimi tomonidan belgilangan miqdordan ortiqcha tashkil etgan tashkilotlar ushbu ish o‘rinlarini tashkil etishga sarflangan mablag‘larining bir qismini tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi bilan tuzilgan shartnoma asosida bandlikka ko‘maklashish

davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplash huquqiga ega ekanliklari inobatga olinsin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2021-yil 9-aprelda 3163-3 raqam bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining 2021-yil 9-apreldagi 19-2021-B-sonli buyrug‘iga ilova “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan tuman aholi bandligiga ko‘maklashish markazi bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga – har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida haq to‘lasin, subsidiya ajratsin.

5. Tuman aholi bandligiga ko‘maklashish markazi (F.Qo‘ziyev) bir hafta muddatda mazkur qarorni tegishli korxona va tashkilot rahbarlariga yetkazsin hamda uning bajarilishi ustidan qat’iy nazoratni ta’minlasin.

6. Tuman hokimning 2020-yil 26-oktyabrdagi 905-Q-sonli qarori 2021-yil 31-dekabrdan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

7. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

8. Ushbu qaror ijrosini bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari F.Majidov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **Q.Sobirov**